

## “MASHRAB” JURNALIDA ADABIY MATERIALLARNING BERILISHI

*Qosimova Madinabonu*

*Toshkent davlat o'zbek tili va  
va adabiyoti universiteti magistranti*

**ANNOTATSIYA:** *XX asr boshlarida jadid adabiyotida matbuotning o'rni va ahamiyati. Maqolada 1924-1927-yillar mobaynida “Zarafshon” gazetasiga qo'shma tarzda Samarqandda chiqarilgan “Mashrab” jurnalining sonlari haqida ma'lumotlar keltirildi. “Mashrab” jurnalida ilmiy, tarixiy, ma'rifiy tahlilga boy maqolalar bilan bir qatorda kichik xabarlar, e'lonlar, yosh shoirlarning ijod namunalari chop etilgan. Nashr etilgan sonlarida maqolalar va adabiy materiallar haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**KALIT SO'ZLAR:** *jurnal, gazeta, matbuot, kalikatura, jadid, adabiy parcha.*

**ANNOTATION:** *The role and importance of the press in modern literature at the beginning of the 20th century. The article provided information about the issues of the magazine "Mashrab" published in Samarkand jointly with the newspaper "Zarafshon" during 1924-1927. "Mashrab" magazine publishes articles rich in scientific, historical, and educational analysis, as well as short notices, announcements, and works of young poets. Published issues feature articles and literary material.*

**KEY WORDS:** *magazine, newspaper, press, calligraphy, novel, literary piece.*

**АННОТАЦИЯ:** *Роль и значение прессы в современной литературе начала XX века. В статье представлены сведения о выпусках журнала «Машраб», издававшегося в Самарканде совместно с газетой «Зарафшон» в 1924-1927 годах. Журнал «Машраб» публикует статьи,*



богатые научным, историческим и просветительским анализом, а также краткие заметки, объявления и произведения молодых поэтов. В опубликованных выпусках представлены статьи и литературные материалы.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** журнал, газета, пресса, каллиграфия, роман, литературное произведение.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, barcha sohalar singari jurnalistika ilmida ham holis va mafkuraviy tazyiqlardan xoli munosabat bildira boshladi. Buning natijasida jadidchilik va jadidchilik matbuotining o'rganilishida muayyan yutuqlarga erishildi.

Jadidchilik Turkistonda qudratli fikriy uyg'onishga turtki bergan harakat edi<sup>1</sup>. Milli uyg'onish g'oyalariga tayangan jadidlar o'z yurtini ozod va obod ko'rish istagi bilan cheklanmay, uning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga chiqishini orzu qilgan edilar. Bu yo'nalishda jadid matbuotining zimmasiga juda ulkan mas'uliyat yuklandi. Mazkur harakatning faollaridan biri Xoji Muin "Matbuot bir millatni uyg'otish uchun bir omil bo'lg'onidek, uning tarixi ham "uyg'onish davri" tarixining muhim bir bo'lagi sanaladur,<sup>2</sup>-deb yozgan edi.

Milliy matbuotimiz tarixidagi dastlabki jurnal "Oyina" jurnali, undan so'ng "Yosh Turkiston" jurnali

Samarqandda "Zarafshon" gazetasiga qo'shma tarzda "Mashrab" jurnali ham 1924-yil iyun oyidan 1927-yil 1-mayga qadar o'z faoliyatini olib bordi. Bu davr mobaynida jami 58 soni nashrdan chiqdi. Ushbu jurnalda adabiy, ijtimoiy, siyosiy mavzudagi maqolalar rasmlar bilan birgalikda berib borilgan. Jurnalning 2-3 sahifalaridagi kalikaturalarda o'sha davrdagi siyosiy ahvol, xalqning turmush tarzi, diniy masalalarni hajviy tarzda yoritishga ahamiyat qaratilgan. "Mashrab" jurnalida ilmiy, tarixiy, ma'rifiy tahlilga boy maqolalar bilan bir

<sup>1</sup> Nishonova G. O'zbek publisistikasining shakllanishi hamda rivojlanishida "Oyina" jurnalining o'rni va ahamiyati dissertatsiya Toshkent 2008. 2-bet

<sup>2</sup> Xoji Muin Samarqand matbuotining tarixi // Zarafshon 1925. 5-may



qatorda kichik xabarlar, e'lonlar, yosh shoirlarning ijod namunalari chop etilgan. Mana shu jihatlarini hisobga olsak, ushbu jurnalni o'rganish va adabiy materiallarini ilmiy tavsiflash dolzarbdir.

“Mashrab” jurnalining 2-soni 1924-yil 21-iyunda chop etilgan. Ushbu sonida<sup>3</sup>:

1. “Xilofat uchun tolash” kalikatura;
2. “Shoir va muharrirlar yozang fikri” sarlavhali To‘qmoq muallifligida yozgan maqolasi;
3. “Kim deydur” iqtisodiy maqola;
4. “Taqdir nedur boshimizga kelturgan balolari” kalikatura;
5. “Fitnachilik va siyosat” sarlavhali Boturbek muallifligi asosida ijtimoiy maqola;
6. “Yolg‘on” sarlavhali Uyi kuygur muallifligida maqola;
7. “Shakkokka la’nat” sarlavhali Zaliyb Qaladiy muallifligida maqola;
8. “Lug‘at va atamalar” sarlavhali Mulla Junbul muallifligida maqola;
9. “Men ham lug‘at to‘qiyman”
10. “Fatvo bo‘limi”

“Mashrab” jurnalining 4-soni 1924-yil iyul oyida chop etiladi. Ushbu sonida:

1. “Tabiiy ishlar” sarlavhasi ostida Boturbek muallifligi asosida ijtimoiy maqola;
2. “Bayram” sarlavhali ichkilik ichib mast bo‘lgandagi holatlar haqida maqola;
3. “Qurbon ashulasi” sarlavhali Dog‘uliy tomonidan yozilgan to‘rtlik she’r;
4. “Qurbonlig‘liq go‘shti qanday qism qilinadur?” Kalikatura
5. “Qurbonliq oshi kimga berilur?” Kalikatura
6. “O‘lkamizda” ijtimoiy maqola;

<sup>3</sup> “Mashrab” jurnali. Samarqand 1924. 2-son



7. “Kattaqo‘rg‘ondan maktub” sarlavhali Lavand tomonidan yozilgan maktub;
8. “Mashrab”ga arzi ixlos kabi mavzudagi maqolalar berilgan.

“Shoir va muharrirlarning fikri” maqolasi matbuot bayramining 2 yillik bayrami munosabati bilan yozilgan bo‘lib unda Ayn (Olim Sharofiddinov), G‘ozi Yunus, Abdulla Qodiriy, Elbek, Ochun, Cho‘lpon, Ayyub.A, Ashurali Zohiriy, Vadud Mahmudiy, Valiy Avamof, Sanjar, Razm, Said Rizo, Bektosh, Zifniy, Hoji Muin, Sadridin Ayniy, Z. Bashiyr, Shokirjon Rahimiy, Shahiyd Ison, Munavvarqori, Mirmuhsin, Komil Alimovlarning o‘z sohalari bo‘yicha fikrlari keltirilgan. Ushbu maqolani To‘qmoq taxallusli ijodkor tayyorlagan.

“Lug‘at va atamalar” maqolasida esa 19 ta so‘zni izohi bilan keltirgan. Bu so‘zlar: namoz, zakot, jannat, go‘r-qabr, davlat, ta’vozui, muvassa (murossa), tabib, gazeta, xotun, er, taloq, mulla, aliym (ulamo), tumor, dunyo, folbin, ko‘knorxon, madrasa. Maqola muallifi Mulla Junbul bo‘lib, keltirgan so‘zlari aynan o‘sha yashab turgan muhitdagi xalqning holatini ifodalovchi so‘zlardir. Bu biz kalikaturalarda va uning ostida yozilgan sharhlarda ko‘rishimiz mumkin. 1-rasmda keltiriladiki: ”Do‘ktir kerak emas o‘zimizning azayimxon bor”. Yostiq ostiga shu tumor bo‘lsa, azroiyl ham kirolmaydi. Eshon tumorining ta’siri (Dorul fanodan dorul baqoga) .

2-rasm ochiq kiyingan ayolni ko‘rib bozordagi barcha erkaklarning bor budini berishga tayyor ekani va juda ayanchli holatlari aks etgan.

3-rasm “Hijob natijalaridan biri” deb nomlanadi. “Bu yerda paranji ostida istagan ishimizni qilamiz va istagan joyimizga boramiz”-,deb ayollarning noto‘g‘ri yo‘llarga kirganliklari ochib berilgan.

Dog‘uliyning “Bayram” va “Bayram qo‘shig‘i” maqolasida musulmonlarning dinga nisbatan munosabati, diniy bayramlarimizni maishat bayramiga aylantirib olishganligi ochiq oydin yoritib berilgan. Boylarning dehqonlarni ustidan masxara qilib, ularga qurbonlikning go‘shini emas suyaklarini berganligi va dehqonlarning ham bunga nisbatan hech qanday e’tiroz



bildirmaganligi bu o'sha davrdagi ijtimoiy holatning qay darajada ekanini ko'rishimiz mumkin.

Bayram qo'shig'i

Hay-hay qurbon oy,  
Bo'ldi qozon-cho'mich moy.  
Foydalanmoq chog'idur,  
Pulni to'plab bo'ling boy.

Ichkilik davri yetdi,  
Xilvat tuting o'rtoqlar!  
Hormang usta ish bitdi,  
Oling qo'lga dutor nay.

Orobag'a minaylik,  
Taralay deb yuraylik.  
Ko'chalarni kezubon,  
Baqiraylik beparvoy!

Pivo-vinoga pul ko'p,  
Jo'ralar keeling to'p-to'p.  
Boybachchalarni olib,  
Yuguraylik piynovay.

Ushbu qo'shiq murabba janrida yozilgan bo'lib, a-a-b-a, a-b-a-a, a-a-b-a, a-a-b-a tarzida qofiyalanidagan shaklda yozilgan. Qo'shiq bo'lganligi uchun o'ynoqi ohangda talaffuzi oson so'zlardan foydalangan.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, jurnalning har bir sonini o'rganar ekanmiz uning tarqalish hududi, boshqa gazeta va jurnallar bilan hamkorligini ham ko'rishimiz mumkin. Milliy matbuot tarixidagi o'rnini aniqlaymiz. Jurnalning nashr etilishi sabablari va o'z faoliyatini nima sababdan



to'xtatganligini o'rganamiz. Undagi publisistik janrlar qamrovi va shakllanish darajalarini tahlil qilamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Nishonova G. O'zbek publisistikasining shakllanishi hamda rivojlanishida "Oyina" jurnalining o'rni va ahamiyati dissertatsiya Toshkent 2008. 2-bet
2. "Mashrab" jurnali. Samarqand 1924. 2-son
3. Xoji Muin Samarqand matbuotining tarixi // Zarafshon 1925. 5-may

